

FARIDA AFRUZ SHE'RIYATIDA TARIXIY OBRAZLAR**Abdumo`min Mamtaliyev,**

ADU adabiyotshunoslik yo`nalishi, II bosqich magistranti

She`riyat – inson ko`nglidagi oniy lahzalarni aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. She`rda shoir ko`nglining akslari jilvalanadi, qator marjonga tizilganday tasvirlanadi. Uni san`at asariga aylantirish shoirning mahoratiga bog`liq.

Olmon shoiri Gyote “G`arbu Sharq devoni”da “She`riyat shijoatdur! Kim etar inkor?” deya ijod mashaqqatini nazarda tutadi. Darhaqiqat, ijod jarayoni murakkab jarayon bo`lib, darddan paydo bo`ladi. Shu bois ijod mahsuli farzanddek aziz, suyumli bo`ladi.

Nodirabegim, Uvaysiyar izdoshi bo`lgan Farida Afruz she`rlarida lirik qahramonning qalb tug`yonlari, kechinmalari sharq ayoliga xos andisha, zakiylik bilan ifodalanadi. Bir qarasang, alamzada ayol obrazi, bir qarasang sabrdan o`zgani bilmaydigan ojiza timsoli gavdalanadi.

Shoiraning “Ko`zim manim” to`plamiga kiritilgan she`rlarida Uvaysiy, Nodirabegimga murojaat tarzidagi she`rlar ham uchraydiki, ularda shoira tom ma`noda o`zini buyuklar izdoshidek sezadi.

“Jahon otin Uvaysiy hazratlariga” she`rida shoira Jahon Otinga Ena deya murojaat etar ekan, o`zida Uvaysiyga yaqinlik sezadi.

Ena bu kun sitamning tilla qoshi mendadir

Kuraklarim liq to`la, ta`na toshi mendadir

Bir siz emas, meni ham ado qildi savdolar

Qirqa kirmay qovjirab, jon taloshi mendadir.

She`rni o`qish davomida lirik qahramonning Uvaysiy bilan darddoshdek munosabati, azaliy muammolar – insonlarning bir-biriga nisbatan adovati, zamon zo`rlaridan nolish hislari seziladi. Jahon Otin yashagan davr va shoira zamoni muqoyasa qilingandek ko`rinadi:

Yillar to`zar hasratning tusi-to`ni eskirmas

Ayol ko`zyoshdan tinmas, yigit so`zi keskirmas

Umuman, shoiraning aksar she`rlarida mahzunlik, o`z zamonasida yolg`izlik tuyg`ulari tasvirlangan. “Mohlar oyimga hasrat” she`rida shoira davrining peshqadam ziyolisi sifatida atrofda sodir bo`layotgan voqealarga teran nazar soladi va yaqin o`tmishdagi ustoz shoira bilan xayolan suhbat qiladi:

Garchi muhabbatning umri uzoqdir

Raqiblarning ishi faqat tuzoqdir

Bizga ortgan mehr zarra, uvoqdir

Mohlar oyim, bizni kim tushunardi.

She`rning har bandida *Mohlar oyim, bizni kim tushunardi* ritorik so`roq gapi takrorlangan holda keladi va lirik qahramon ifodalamoqchi bo`lgan hislarning o`quvchiga ta`sirini oshiradi. Yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, umuman, qarama-qarshi tushunchalar she`r

oxiriga qadar bayon etiladi. Shoira Nodira taqdirini xotirlar ekan, ayolga yaxshi munosabatda bo`lmaganlarni nomard deb ataydi. O`zgarayotgan zamon, boylikka berilib, qalbini yo`qotayotganlar orasida ko`ngil kishisining baxtsizligidan o`kinadi:

Garchi dil koshona, ostonasi yo`q.

Hamma dunyoparast, bir oshnosi yo`q.

Baxtim o`pay desam peshonasi yo`q

Mohlar oyim bizni kim tushunardi.

Har ikki ustoz shoiralarning hayotida turfa qiyinchiliklar ro`y berganini ta`kidlagan holda o`z hayotidagi nohaqliklarni ham tasvirlaydi:

Garchi tomirlarda bulbul sayraydi

Qarqunoq da`vogar, elni avraydi

Shoir shoirasin qatlin qayraydi

Mohlar oyim, bizni kim tushunardi.